

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARI DIALOGIK DISKURSIDA ANTONIMLARNI SHAKLLANTIRUVCHI FORMAL-FUNKSIONAL VOSITALAR

Saydjanova Komila Davronovna

Toshkent davlat transport universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: ksaydjanova@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0142-2136>

Annotatsiya.

Maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi suhbat matnlarida qarama-qarshi ma'noli so'zlarni hosil qiluvchi shakliy vositalar qiyoslanadi. Antonimlar alohida so'z sifatida emas, balki ular qo'llangan gap qolipi va bajargan vazifasi bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Ishda, bir tomondan, fransuz tilidagi in- prefiksining qo'shilish imkoniyatlari bilan o'zbek tilidagi -siz, no-, be- affiksalarining qo'llanish doirasi solishtiriladi; ikkinchi tomondan, dialogda antonimlarni bog'lab keluvchi yetti xil gap qolipi tavsiflanadi. Tahlil natijasida har ikki tilda ham eng ko'p ishlatiladigan antonimlar qo'shimcha yordamida emas, turli o'zaklardan hosil bo'lishi aniqlanadi; qo'shimcha bilan antonim yasash imkoniyati esa fransuz tilida so'zning ma'nosiga, o'zbek tilida uning turkumi va kelib chiqishiga bog'liq ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: antonim, dialogik diskurs, shakliy vosita, gap qolipi, prefiks, affiks, qiyosiy tahlil, fransuz tili, o'zbek tili.

ФОРМАЛЬНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ОБРАЗОВАНИЯ АНТОНИМОВ В ДИАЛОГИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ ФРАНЦУЗСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Сайджанова Комила Давроновна

Ташкентский государственный транспортный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье сравниваются формальные средства образования слов с противоположным значением в разговорных текстах французского и узбекского языков. Антонимы рассматриваются не как отдельные слова, а вместе с той синтаксической конструкцией, в которой они употреблены, и той задачей, которую они выполняют. С одной стороны, сопоставляются возможности присоединения французского префикса in- и сфера употребления узбекских аффиксов -siz, no-, be-; с другой стороны, описываются семь типов конструкций, связывающих антонимы в диалоге. В результате анализа установлено, что в обоих языках наиболее употребительные антонимы образуются не аффиксальным путём, а от разных корней; возможность же аффиксального образования антонима во французском языке зависит от значения слова, а в узбекском — от его частеречной принадлежности и происхождения.

Ключевые слова: антоним, диалогический дискурс, формальное средство, синтаксическая конструкция, префикс, аффикс, сопоставительный анализ, французский язык, узбекский язык.

FORMAL AND FUNCTIONAL MEANS OF FORMING ANTONYMS IN THE DIALOGIC DISCOURSE OF FRENCH AND UZBEK

Saydjanova Komila Davronovna

Tashkent State Transport University, Independent Researcher.

Abstract.

The article compares the formal means of forming words with opposite meanings in conversational texts of French and Uzbek. Antonyms are examined not as isolated words, but together with the syntactic pattern in which they occur and the task they perform. On the one hand, the article compares the combinatory possibilities of the French prefix in- with the range of use of the Uzbek affixes -siz, no-, be-; on the other hand, it describes seven types of patterns that link antonyms in dialogue. The analysis shows that in both languages the most frequently used antonyms are formed not by affixation but from different roots, while the possibility of forming an antonym by means of an affix depends in French on the meaning of the word and in Uzbek on its part of speech and origin.

Keywords: antonym, dialogic discourse, formal means, syntactic pattern, prefix, affix, comparative analysis, French, Uzbek.

Kirish. Muloqot ishtirokchilari o'z pozitsiyasini, qoida tariqasida, suhbatdoshning pozitsiyasiga nisbatan belgilaydi, shu bois qarama-qarshilik munosabati nutqni tashkil etuvchi tabiiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Tilda mazkur munosabatni ifodalovchi asosiy vosita antonimiya bo'lsa-da, an'anaviy tilshunoslikda u uzoq vaqt davomida leksik-semantik tizimning paradigmatik aloqasi sifatida, ya'ni kontekstdan ajratib olingan so'z juftliklari doirasida talqin qilindi; natijada antonimik juftlikning qiymati uning tizimdagi mavqeyi bilan o'lchanib, nutqdagi real xulqi tadqiqot maydonidan tashqarida qoldi.

Vaziyat korpus tadqiqotlarining rivojlanishi bilan o'zgardi: ikki antonimning bir sintaktik kontekstda birga qo'llanishi tasodifiy hodisa emas, balki statistik mezonlar bilan o'lchanadigan darajada muntazam qonuniyat ekanligi aniqlandi [12, p. 314]. Ushbu yo'nalishning metodologik poydevorini S. Jonsning tadqiqoti tashkil etadi: muallif antonimik birga uchrash holatlarini diskursiv vazifasiga ko'ra o'n toifaga ajratgan hamda har bir funksiyaga muayyan sintaktik qolip biriktirilishini asoslagan [5; 7]. Mazkur tipologiya keyinchalik shved [11], yapon [10] va fransuz [12] materiallarida sinovdan o'tkazilgan bo'lsa-da, agglutinatив tuzilishga ega turkiy tillarga tatbiq etilishi hozirgacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas.

Antonimiyaning pragmatik salohiyati esa aynan dialogik diskursda to'liq ochiladi, chunki e'tiroz, rad etish, tuzatish, taqqoslash va baholash kabi nutqiy aktlar qarama-qarshi ma'noli birliklar zimmasiga yuklanadi. Shunga qaramay, o'zbek tilshunosligida dialogning tiplari va strukturaviy qurilishini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar sanoqli bo'lib qolmoqda [4, b. 558], antonimiya masalasi esa, asosan, leksik-semantik va badiiy-uslubiy kesimda o'rganilgan. Aynan shu ikki yo'nalishning kesishgan nuqtasida sezilarli ilmiy bo'shliq mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Antonimlarning diskursiv funksiyalari nazariyasi S. Jons tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, ingliz tilidagi antonimik birga uchrashlarning 77 foizdan ortig'i ikkita asosiy funksiyani — yordamchi va birikkan antonimiyani — voqelantiradi [11, p. 2]. Yordamchi antonimiyada mavjud antonimik juftlik (A-juftlik) gapdagi ikkinchi darajali qarama-qarshilikni (B-juftlikni) kuchaytiradi yoki hatto yaratadi, ya'ni A-juftlikning vazifasi zidlik signalini berish va B-juftlikni kontrastiv tarzda talqin qilishga majbur etishdan iborat bo'ladi [12, p. 315]. Birikkan antonimiyada esa ikki qutb o'rtasidagi farq neytrallashadi va antonimik juftlik shkalaning butun hajmini qamrab oladi.

Fransuz materialidagi eng izchil tadqiqot M. Steffensga tegishli: muallif "Le Monde" korpusidan antonimlar birga qo'llangan 600 ta gapni ajratib, chiziqli sintaktik qoliplar modeli o'rniga bog'lanish tahlilini qo'llagan hamda o'nta diskursiv funksiyani oltita semantik-referensial funksiyaga — yordamchilik, korrelyatsiya, dixotomizatsiya, ikki hamda bir bog'lanishli to'liqlik va rekategorizatsiyaga — jamlagan [12, p. 325–326]. Uning "ikki bog'lanish" va "bir bog'lanish" tushunchalari mazkur tadqiqot uchun diagnostik qiymatga ega, chunki ular B-juftlikni aniqlashning formal mezonini beradi.

Morfologik sath bo'yicha J.-K. Anskombrning tadqiqoti asosiy nazariy manba hisoblanadi. Muallif fransuz tilidagi **in-** prefiksining qo'shilishi sof morfologik emas, balki semantik hodisa ekanligini, ya'ni asos ifodalagan xususiyat turiga bog'liqligini isbotlagan va uchta qoida shaklida rasmiylashtirgan: mohiyatan zaruriy (*intrinsèque essentielle*) xususiyat predikatlanmaydi, shu bois **in-** prefiksli shakl me'yordan chetlanishni bildiradi; ichki tasodifiy (*intrinsèque accidentelle*) xususiyatni ifodalovchi sifatlar **in-** yordamida antonim hosil qilmaydi; **in-** prefiksli sifatning mavjudligi esa protsessiv asosning mavjudligi bilan bog'liq [1, § 25, 37, 80]. Ushbu qoidalar tufayli fransuz tilida *potable* / **impossible* bo'lsa-da, *buvable* / *imbuvable*; *constructible* / **inconstructible* bo'lsa-da, *construisable* / *inconstruisable* juftliklari yuzaga keladi. Eng muhimi, Anskombr keltirgan quyidagi kuzatuv qiyosiy tahlil uchun kalit vazifasini bajaradi: fransuz tilidagi eng chastotali antonimik juftliklar — *bon-mauvais*, *grand-petit*, *haut-bas*, *vrai-faux*, *beau-laid* — **in-** prefiksini hech qachon qabul qilmaydi [1, § 1]. D. Gaaton esa **in-** yordamidagi derivatsiya asosni o'zining fe'liy xususiyatlaridan mahrum qilishini sintaktik mezonlar bilan ko'rsatgan [3]; fransuz leksikasi qurilishining umumiy manzarasi D. Apotelo ishida bayon etilgan [2].

O'zbek tilshunosligida dialogik diskursning pragmatik tadqiqi Sh. Safarovning pragmatikistikaga oid ishlarida nazariy asos topgan [16], L. R. Raupovning dialogik diskursdagi polipredikativ birliklar sotsiopragmatikasiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida [15] va F. S. Karimovning o'zbek dialogik nutqining lingvopragmatik xususiyatlariga oid tadqiqotida [8] rivojlantirilgan. Inkori va yo'qlik ma'nosining shakli-mazmunini ifodalanishi D. Lutfullayeva ishlarida [9], zidlovchi bog'lovchilarning lingvopragmatikasi esa A. B. Pardayev tomonidan [14] o'rganilgan. J. J. Ismailov badiiy dialogik diskursning jonli (real), xayoliy va ichki turlarini ajratib, hozirgi o'zbek nasrida bahs-dialog, tavsifiy dialog va dramatik dialog shakllari faollashayotganini ko'rsatgan hamda dialogda ellipsislik, ekspressivlik va intonatsiyaning tez o'zgarishi qahramon xarakterini ochishning sotsial-nutqiy vositasi ekanligini ta'kidlagan [4, b. 560–561]. Biroq ushbu tadqiqotlarda antonimiya ham, dialogik diskurs ham alohida-alohida o'rganilgan bo'lib, ularning kesishuv nuqtasi — antonimik juftlikni voqelantiruvchi shakliy vositalar bilan ular dialogda bajaradigan kommunikativ vazifalar o'rtasidagi bog'lanish — hozircha yetarlicha yoritilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Antonimlarni shakllantiruvchi morfologik vositalar

Fransuz tilida antonimik munosabatni derivatsion yo'l bilan hosil qiluvchi asosiy vosita — salbiy prefiksalar tizimidir: **in-** va uning fonologik allomorflari (**im-**, **il-**, **ir-**), shuningdek, **non-**, **dé(s)-**, **anti-**, **mé-**, **a-** prefiksleri. Ular orasida **in-** eng mahsuldori hisoblanadi va, asosan, **-able/-ible** qo'shimchali sifatlar hamda sifatdoshlarga qo'shiladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu mahsuldorlik universal emas: Anskombr qoidalariga ko'ra, ichki tasodifiy xususiyatni ifodalovchi va tasniflovchi vazifada keluvchi sifatlar **in-** prefiksini qabul qilmaydi, bunday hollarda antonim **non-** prefiksi orqali hosil qilinadi (*potable* / *non-potable*, *permissif* / *non-permissif*, *étanche* / *non-étanche*). Shu bilan

birga, **non-** prefiksatsiyasining o'zi ham cheksiz emas (**non-possible*), ya'ni fransuz tilidagi salbiy prefiksatsiya bir vaqtning o'zida ham mahsulдор, ham tanlab qo'llanuvchi tizimni tashkil etadi.

O'zbek tilida antonim hosil qiluvchi affiksalar vositalar guruhini **-siz** qo'shimchasi hamda **no-, be-, bad-** kabi fors-arab tillaridan o'zlashgan prefiksalar unsurlar tashkil etadi. Ular mahsulдорlik jihatidan fransuz prefiksalaridan qolishmaydi, biroq tarqalish doirasi boshqacha belgilangan: **-siz** asosan ot asosli sifatlarga qo'shiladi (*aqli — aqlsiz, kuchli — kuchsiz*), **no-** va **be-** esa o'zlashgan qatlam bilan chegaralangan (*to'g'ri — noto'g'ri, xabardor — bexabar*). Muhim tipologik farq shundaki, o'zbek tilshunosligi an'anasida fe'ning bo'lishsizlik shakli (*kel — kelma*) antonimiya doirasiga kiritilmaydi, chunki bu grammatik kategoriya bo'lib, leksik ziddlik hosil qilmaydi. Demak, o'zbek tilida grammatik inkor bilan leksik antonimiya orasidagi chegara aniq tortilgan bo'lsa, fransuz tilida **in-** prefiksi aynan "protessiv stereotipning inkori leksikalizatsiyasi" sifatida [1, § 80] mazkur chegarada turadi.

Har ikki tilda umumiy bo'lgan eng muhim izomorf hodisa shundaki, eng chastotali, kanonik antonimik juftliklar affiksalar emas, suppletiv (ildiz almashinuvi) yo'li bilan hosil bo'ladi: fransuzcha *bon-mauvais, grand-petit, haut-bas, vrai-faux* juftliklariga o'zbekcha *yaxshi-yomon, katta-kichik, baland-past, to'g'ri-yolg'on* juftliklari to'liq muvofiq keladi. Bu esa affiksalar antonimiya har ikki tizimda ham periferik, hosila mavqega ega ekanligini ko'rsatadi.

1-jadval

Fransuz va o'zbek tillarida antonim hosil qiluvchi affiksalar vositalar

Vosita turi	Fransuz tili	O'zbek tili
Salbiy prefiks	in-/im-/il-/ir- (inutile, impossible, illisible, irr��el)	no-, be-, bad- (noto'g'ri, bexabar, badbaxt)
Neytral inkor prefiksi	non- (non-potable, non-��tanche)	— (analitik yo'l: "... emas")
Suffiksalar vosita	— (mahsulдор emas)	-siz (aqlsiz, kuchsiz, foydasiz)
Annulyativ/iterativ prefiks	d��(s)-, re- (faire — d��faire, lire — relire)	— (analitik: "qayta ...", "... ni bekor qilmoq")
Suppletiv (ildiz almashinuvi)	bon-mauvais, grand-petit, haut-bas	yaxshi-yomon, katta-kichik, baland-past
Grammatik inkor	ne ... pas (sintaktik)	-ma (antonimiya doirasiga kirmaydi)

Antonimiyani voqelantiruvchi konstruksion qoliplar

Dialogik diskursda antonimik munosabat, qoida tariqasida, alohida leksema orqali emas, balki muayyan sintaktik qolip ichida voqelanadi. M. L. Marfi bunday qoliplarni Fillmor va Key ma'nosidagi konstruksiya, ya'ni shakl-ma'no birligi sifatida talqin qilishni taklif etadi va konstruksiyalarning o'zi kontrastiv ma'no tashishini asoslaydi [13; 11, p. 4]. Quyida yetti asosiy funksiya bo'yicha ikki tildagi qoliplar teng miqdordagi misollar asosida tavsiflanadi.

Yordamchi antonimiya

Bu funksiyada mavjud antonimik juftlik javob replikasidagi ikkinchi darajali qarama-qarshilikni faollashtiradi; qolip morfosintaktik parallelizm va ko'pincha ellipsis bilan kuchaytiriladi.

fr. — Tu aimes ce quartier ? — J'aime le calme, mais je d  teste le bruit des voitures.

uz. — Bolalar bilan qiyinmi? — Kattasi bilan oson, kichigi bilan qiyin.

Har ikki misolda A-juftlik (*aimer/d  tester*; *oson/qiyin*) B-juftlikni (*le calme/le bruit*; *kattasi/kichigi*) kontrastiv talqin qilishga majbur etadi; o'zbek tilining SOV tartibi va kesimning gap oxirida turishi esa replikalararo parallelizmni strukturaviy jihatdan mustahkamlaydi.

Birikkan antonimiya

fr. — Qui peut y participer ? — Jeunes et vieux, tout le monde ; on n'exclut ni les riches ni les pauvres.

uz. — Kim qatnashsa bo'ladi? — Katta-yu kichik, hamma; na boyi, na kambag'ali chetda qolmaydi.

Fransuzcha *X et Y, X ou Y, ni ... ni ...* qoliplariga o'zbekcha *X-u Y, X yoki Y, na ... na ...* qoliplari funksional jihatdan to'liq muvofiq keladi. Ikkala tilda ham qolip to'liqlik (*exhaustiveness*) ma'nosini, ya'ni shaklaning barcha nuqtalarini qamrab olishni ifodalaydi.

Qiyosiy (comparative) antonimiya

fr. — Alors, il est content ? — Il est plus d   u que content.

uz. — Xo'sh, xursandmi? — Xursand bo'lgandan ko'ra ko'proq xafa.

Fransuzcha *plus X que Y* analitik konstruksiyasiga o'zbekcha *X-dan ko'ra Y* qolipi hamda **-roq** qiyosiy affiksi mos keladi; demak, bir xil funksiya ikki tilda turli morfosintaktik zaminga tayanadi.

Farqlovchi antonimiya

fr. — C'est pareil, non ? — Vous ne voyez pas la diff  rence entre un ami et un ennemi ?

uz. — Farqi yo'q-ku? — Do'st bilan dushman orasidagi farqni sezmayapsizmi?

Ushbu funksiyada antonimik juftlik ziddlikning o'zini emas, balki uning mavjudligini metalingvistik tarzda qayd etadi; fransuzcha *la diff  rence entre X et Y* qolipiga o'zbekcha *X bilan Y orasidagi farq* qolipi izchil muvofiq keladi.

O'tuvchi antonimiya

fr. — Comment cela s'est-il termin   ? — On est pass   de l'espoir au d  sespoir en une seule nuit.

uz. — Oxiri nima bo'ldi? — Bir kechada umiddan umidsizlikka o'tdik.

Fransuzcha *de X    Y* qolipi bilan o'zbekcha *X-dan Y-ga* qolipi o'rtasidagi muvofiqlik to'liq bo'lib, farq faqat ifoda

vositasining tabiatida — predlog va kelishik affiksida — namoyon bo'ladi.

Inkorli antonimiya

fr. — C'est donc un échec ? — Ce n'est pas un échec, mais un report.

uz. — Demak, mag'lubiyatmi? — Mag'lubiyat emas, balki kechikish.

Mazkur qolip dialogda tuzatish vazifasini bajaradi: so'zlovchi suhbatdoshining talqinini bir qutbni inkor qilib, ikkinchisini muqobil sifatida taklif etish orqali qayta sozlaydi; Steffens tasnifida bunday holatlar rekategorizatsiya funksiyasiga birlashtiriladi [12, p. 323].

So'roqli antonimiya

fr. — Bon, vous êtes pour ou contre ?

uz. — Xo'sh, rozimisiz yoki qarshimisiz?

Bu funktsiya suhbatdoshni o'rtalik pozitsiyasidan chiqarib, ikki qutbdan birini tanlashga majbur qiladi va shu bois sof dialogik xarakterga ega. Marfi va hammualliflarining ta'kidlashicha, u aynan interaktsion muloqotda, savol darhol javob talab qiladigan vaziyatlarda faollashadi [11, p. 13].

Yuqoridagi tavsif natijalarini umumlashtirgan holda, ikki tildagi qoliplarning funksional muvofiqligini quyidagi jadvalda keltirish mumkin.

2-jadval

Antonimik funksiyalarni voqelantiruvchi qoliplarning ikki tildagi muvofiqligi

Funksiya	Fransuz qolipi	O'zbek qolipi	Munosabat
Yordamchi	parallelizm; X mais Y	parallelizm; X, ... Y	izomorf
Birikkan	X et/ou Y; ni ... ni ...	X-u Y; X yoki Y; na ... na ...	izomorf
Qiyosiy	plus X que Y	X-dan ko'ra Y; Y-roq	qisman alloomorf
Farqlovchi	la différence entre X et Y	X bilan Y orasidagi farq	izomorf
O'tuvchi	de X à Y	X-dan Y-ga	izomorf
Inkorli	non pas X, mais Y	X emas, balki Y	izomorf
So'roqli	X ou Y ?	X-mi yoki Y-mi?	qisman alloomorf

Jadvaldan ko'rinadiki, yetti funksiyadan beshtasi ikki tilda izomorf qoliplar orqali voqelanadi, ya'ni Jons–Marfi tipologiyasi tipologik jihatdan uzoq turuvchi tillarda ham inventar darajasida universal xarakterga ega. Allomorf hodisalar esa ikki nuqtada qayd etiladi: birinchidan, qiyosiy funksiyada fransuz tili sof analitik konstruksiyaga tayansa, o'zbek tili analitik qolip bilan bir qatorda **-roq** affiksali ko'rsatkichidan ham foydalanadi; ikkinchidan, so'roqli funksiyada o'zbek tilidagi **-mi** so'roq yuklamasi har ikki qutbga alohida qo'shilib, tanlov majburiyatini fransuz tilidagiga qaraganda kuchliroq ifodalaydi.

Dastlab, natijalar Marfi va hammualliflari ilgari surgan gipotezani — binar kontrastning turli madaniyatlar qadriyatlarini va tafakkur qoliplari bilan turlicha o'zaro ta'sirda bo'lishi haqidagi farazni [11, p. 2] — turkiy til materiali asosida bilvosita tasdiqlaydi. Shved tilidagi *lagom* qadriyati bir vaqtdalik antonimiyani ulushini oshirgani kabi, o'zbek muloqot madaniyatidagi me'yor, insof va murosa qadriyatlarini ham so'roqli antonimiyani yuzga tahdid soluvchi salohiyatini yumshatuvchi vositalar bilan birga qo'llanishini talab qiladi.

Morfologik sathdagi tahlil kutilmagan natija berdi. Dastlabki taxminga ko'ra, fleksiv-analitik fransuz tilida prefiksali antonimiya yetakchi, agglutinativ o'zbek tilida esa suppletiv yo'l asosiy bo'lishi kerak edi. Amalda esa har ikki tilda ham kanonik antonimik juftliklar suppletiv tabiatga ega bo'lib chiqdi, prefiksali va affiksali derivatsiya esa ikkalasida ham periferik mavqeni egalladi. Farq mahsuldorlikda emas, cheklov turida namoyon bo'ldi: fransuz tilida **in-**prefiksining qo'shilishi asos ifodalagan xususiyatning turi bilan, ya'ni semantik omil bilan cheklansa [1, § 25], o'zbek tilida **-siz**, **no-**, **be-** affikslarining qo'llanishi asosning so'z turkumi va etimologik qatlami bilan, ya'ni strukturaviy omil bilan cheklanadi. Ushbu kuzatuv qiyosiy antonimiya tadqiqotlari uchun yangi tipologik parametr — "affiksali antonimiyani cheklovchi omilning tabiati" parametrini taklif qilish imkonini beradi.

Steffens ajratgan ikki bog'lanish va bir bog'lanish tushunchalarining o'zbek materialidagi qo'llanilishi alohida e'tiborga loyiq. Muallif B-juftlikning mavjudligini antonimlarga nisbatan bir xil bog'lanish o'rnini to'ldiruvchi leksik birliklarning turlicha bo'lishi bilan aniqlaydi [12, p. 320]. O'zbek tilida kesimning gap oxirida turishi va aktantlarning kelishik affikslari bilan aniq belgilanishi tufayli mazkur bog'lanishlar formal jihatdan osonroq ajratiladi, bu esa dependensiya tahlilini o'zbek dialogik korpusiga tatbiq etish istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

Dialogda ellipsislik va ekspressivlik qahramon xarakterini ochishning asosiy vositasi hisoblanar ekan [4, b. 560], antonimik juftlik ellipsis sharoitida ham qutblanishni saqlab qolgani sababli replikalar zanjirining mazmuniy uyg'unligini ta'minlovchi eng tejamli vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, fransuz va o'zbek tillarida antonimik munosabatni yuzga chiqaruvchi vositalar yagona tizimni tashkil etib, u morfologik, konstruksion va funksional qatlamlardan iborat bo'ladi hamda dialogik diskursda mazkur qatlamlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit tarzda amal qiladi. Aynan shu holat tahlil birligini qayta belgilashni taqozo etadi: agar tadqiqot markaziga alohida leksema qo'yiladigan bo'lsa, bir tilda barqaror lug'aviy antonim bo'lgan juftlikning boshqa tilda perifrasy yoki konstruksiya orqali ifodalanishi hisobga

olinmay qoladi; "antonimik juftlik + konstruksion qolip + funksional maqsad" uchligi esa qiyoslashni leksema darajasidan funksiya darajasiga ko'tarib, tipologik jihatdan uzoq turuvchi tizimlarni bir asosda solishtirish imkonini beradi.

Fransuz tilida affiksial antonim hosil qilish imkoniyati asos ifodalagan xususiyatning turiga, ya'ni semantik omilga bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida u asosning so'z turkumi va etimologik qatlamiga, ya'ni strukturaviy omilga bog'lanadi. Bundan tashqari, grammatik inkor bilan leksik antonimiya orasidagi chegara ikki tilda turli nuqtada tortilgani ma'lum bo'ldi: o'zbek tilshunosligi an'anasida fe'lning bo'lishsizlik shakli antonimiya doirasidan ongli ravishda chiqariladi, fransuz tilida esa **in-** prefiksi protsessiv stereotipning inkori sifatida aynan shu chegarada joylashadi va shu bois uning qo'llanishi izchil bo'lmagan, semantik jihatdan tartibga solingan xarakterga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anscombe J.-C. L'insoutenable légèreté morphologique du préfixe négatif *in-* dans la formation d'adjectifs // *Linx*. – Paris: Presses universitaires de Paris Nanterre, 1994. – Hors-série No. 5. – P. 299–321.
2. Apothéloz D. *La construction du lexique français*. – Paris: Ophrys, 2002. – 164 p.
3. Gaatone D. Les préfixes négatifs avec les adjectifs et les noms verbaux // *Cahiers de lexicologie*. – 1987. – No. 50. – P. 79–90.
4. Ismailov J. J. Dialogik diskurs haqida. Badiiy dialogik diskursda milliy mental va pragmatik omillarning roli // *Modern Science and Research*. – 2024. – Vol. 3. – Issue 5. – B. 557–564.
5. Jones S. *Antonymy: A Corpus-based Perspective*. – London: Routledge, 2002. – 193 p.
6. Jones S. The discourse functions of antonymy in spoken English // *Text and Talk*. – 2006. – Vol. 26. – P. 191–216.
7. Jones S., Murphy M. L., Paradis C., Willners C. *Antonyms in English: Construals, Constructions and Canonicity*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 174 p.
8. Karimova F. S. *O'zbek tilidagi dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari*: filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 46 b.
9. Lutfullayeva D. *Tasdiq gaplarda inkor va shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik*: filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1997. – 24 b.
10. Muehleisen V., Isono M. Antonymous adjectives in Japanese discourse // *Journal of Pragmatics*. – 2009. – Vol. 41. – No. 11. – P. 2185–2203.
11. Murphy M. L., Paradis C., Willners C., Jones S. Discourse functions of antonymy: A cross-linguistic investigation of Swedish and English // *Journal of Pragmatics*. – 2009. – Vol. 41. – No. 11. – P. 2159–2184.
12. Steffens M. Antonymic Discourse Functions and Manipulation: A Corpus Analysis of Present-Day French // *Corpus Pragmatics*. – 2018. – Vol. 2. – P. 313–332.
13. Murphy M. L. *Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 292 p.
14. Pardayev A. B. *O'zbek tili yordamchi so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatikasi*: filol. fan. d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 26 b.
15. Raupova L. R. *Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi*: filol. fan. d-ri diss. – Toshkent, 2017. – 261 b.
16. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*: monografiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.